

**ALEKSANDR FAYNBERG QOLDIRGAN ADABIY MEROS***Muxtorova Hafiza Ixtiyor qizi**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iste'dodli ijodkor, o'zbek va rus adabiyotining yirik vakili Aleksandr Arkadevich Faynberg hayotiga oid muhim ma'lumotlar, shoirning she'riy to'plamlari, beqiyos asarlari, tarjimonlik faoliyati bilan bir qatorda o'zbek va tojik kinematografiyasiga qo'shgan o'ziga xos hissasi va ijodiy yo'lida erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Aleksandr Faynberg, adabiy muhokamalar, she'riy to'plam, jurnalistika, tarjimonlik, multiplikatsion film, ssenariy, kinomatografiya, madaniy meros.

Adabiyot kitobxonlarni ma'nan o'stiradi, ruhan chiniqtiradi, tasavvur kuchi orqali turli olamlarga eltib boradigan, yangi g'oyalar ochib beradigan va insoniyat qismati, tajribasini ongimizga badiiylashtirilgan taqdiralar epkini orqali singdira oladigan qudratli kuchdir. Adabiyot orqali biz insoniy tuyg'ularning naqadar teranligini o'rganishimiz, anglaymiz, kundalik hayotda qiyinchiliklarga duch kelgan paytimiz oson yechimlar bera oladigan beqiyos adabiy asarlar bilan bizni tarbiyalovchi, atrofimizdagi olamning murakkabliklarini yengil va oson tushuntira oluvchi qiyoslab bo'lmas vositadir.

Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentning Jukovskiy mahallasida tavallud topgan. Shoir Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlab, shu qatorda Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ham faoliyat olib borgan va ayni damdan boshlab uning asarlari dunyo yuzini ko'ra boshladi. Aleksandr Faynberg rus shoiri O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston shoirlari orasida shubhasiz eng yorqin ijodkorlardan biri hisoblanadi. Yozuvchi 15ta she'riy kitobga mualliflik qiladi va shoirning senariysi assosida "O'zbekfilm" kino studiyasida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandaharda toblanganlar" asarlari, "Tojikfilm" kinostudiyasida "Jinoyatchi va oqlovchilar" va boshqa filmlar hamda 20 ga yaqin multifilmlar yaratiladi. Uning asar va she'rlari Kanada va Izroil kabi xorijiy mamlakatlarning vaqtli matbuotlarida chop etilib, kitobxon muxlislari orasida sevib mutoala qilinadi. Aleksandr Faynberg katta tarjimon hisoblanib rusiy zabon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlarning kitoblarini tarjima qilib beradi. Taniqli shoirning o'zbek tiliga o'girilgan she'rlari "Chig'ir" kitobida o'quvchilar qo'lga yetib keldi. Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjimalar tashkil qiladi. O'zbek she'riyatining mashxur qalam sohiblari Navoiy g'azallari, E.Vohidov, Abdulla Oripov . Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima

qildi. Toshkentda A.Oripov , Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said, Omon Matjon she'rlari jamlangan "Oq qushlar galasi" to'plami nashrdan chiqariladi.

Asl adabiyotning jilvakorligi uning fikrni uyg'ota olishida, ijod uchqunida, o'zgarishlarga ilhomlantirishdadir. U bizga qiyin paytlarda tasalli berishi, umidsizlik paytlarida ruhimizni ko'tarishi va qalbimizning tub-tubidagi mavjud bo'lgan ichki go'zallikni eslatishi mumkin bo'gan ilohiy kuchdir. Aleksandr Faynberg mana shunday adabiyotning yirik vakillaridan biridir. U o'n beshta she'riy kitoblar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, uning senariylari asosida to'rtta uzun metrajli badiiy filmlar va yigirmadan ortiq multiplikatsion filmlar suratga olingan. U Alisher Navoiyning dostonlarini va she'rlarini, shuningdek, boshqa zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning she'rlari AQSh, Kanada va Isroil kabi xorij mamlakatlari vaqtli matbuotlarida chop etilgan.

Aleksandr Faynberg 1999-yil 23-avgustda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" sifatida taqdirlandi. Shuningdek, u 2004-yilda 23-avgustda "O'zbekiston xalq shoiri" sifatida ham e'tirof etilgan. O'zbekiston xalq shoiri, Yozuvchilar uyushmasi maslahatchisi, kinomatografiyaning taraqqiy etishiga o'zining yirik hissasini qo'shgan Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun 2009-yil Pushkin medali bilan taqdirlangan.

Aleksandr Faynberg katta tarjimon hisoblanib rusiy zabon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlarining kitoblarini tarjima qilib beradi. Taniqli shoirning o'zbek tiliga o'girilgan she'rlari "Chig'ir" kitobida o'quvchilar qo'lga yetib keldi. Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjimalar tashkil qiladi. O'zbek she'riyatining mashhur qalam sohiblari Navoiy g'azallari, E.Vohidov, Abdulla Oripov . Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qildi. Toshkentda A.Oripov , Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said, Omon Matjon she'rlari jamlangan "Oq qushlar galasi" to'plami nashrdan chiqariladi.

O'zbekiston xalq shoiri, Kinomatografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti tomonidan O'zbekiston O'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug' namayondalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham qad rosladi. Faynberg ssenariysi asosida "O'zbekfilm" kino studiyasida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandahorda toblanganlar", "Tojik film" kino studiyasida esa "Jinoyatchi va oqlovchilar" hamda boshqa bir qator filmlar suratga olingan. Aleksandr Faynberg Arkadevich – rus shoiri, O'zbekiston xalq shoiri. O'zbekiston shoirlar osmonida Aleksandr Faynberg, shubhasiz, eng yorqin yulduzlardan biridir.

Adabiyot millatni har tomonlama o'stirish, har bir avlod vakillarini ilmga tomon chorlash, ruhiy ozuqa bilan ta'minlash, shakllantirish, madaniyatlar orasidagi tafovutni

bartaraf etish, turli millat vakillarini birlashtirish, hamdardlik va tushunishni rivojlantirish qobiliyatiga ega. Adabiyot orqali biz o'tmishga nazar tashlashimiz, kelajakni tasavvur qilishimiz va bugungi kunni chuqur va badiiy tahlillar, tafakkuriy mushohadalar va adabiy munozaralar orqali anglashimiz mumkin.

Shu o'rinda xulosa qilish mumkinki, shovqin va tartibsizliklarga to'la dunyoda adabiyot yorug'lik chirog'i bo'lib xizmat qiladi, dunyodagi o'rnimizni anglashimizga yordam beradi. Abadiyot umumbashariy san'at bo'lib, kelgusi avlodlar hayotini ilhomlantirib, ma'rifatli va boyitib boraveradi. Aleksandr Faynberg ijodiy namunalari, she'rlari, tarjimalari va ssenariylari aynan shu adabiyot daryosining bir jilg'asi misoli kitobxonlar, adabiyotsevar insonlar qalbiga buloq suvi yanglig' yetib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr'Faynberg>
2. <https://arm.samdchti.uz/library/book'view/692>
3. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
4. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>